



AVTOMOBIL SHINASI BOZORIDA IMPORT O'RNINI BOSISH VA MAHALLIYLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Shoimqulov Raxmonqul Ulug'murotovich
Bojxona qo'mitasi Tashqi iqtisodiy faoliyat
ilmiy markazi yetakchi ilmiy xodimi,
Toshkent shahar, O'zbekiston
[*raxmonqul_shoimqulov@mail.ru*](mailto:raxmonqul_shoimqulov@mail.ru)

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tezisda O'zbekiston Respublikasida avtomobil shinalari bozorining joriy holati, import hajmlari dinamikasi, ichki ishlab chiqarish salohiyati va talab-taklif nisbati kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, shinalarga bo'lgan ichki ehtiyojning asosiy qismi import hisobiga qoplanayotgani, shu bilan birga mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanilmayotgani aniqlangan. Shuningdek, import va mahalliy mahsulotlar narxlari o'rtasidagi farq mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish uchun iqtisodiy asos mavjudligini ko'rsatadi. Xorijiy tajriba asosida shina chiqindilarini qayta ishlash va utilizatsiya qilish tizimlarining samaradorligi o'rganilib, mazkur yo'nalishda milliy amaliyotni takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: avtomobil shinalari, import, mahalliyashtirish, sanoat kooperatsiyasi, ishlab chiqarish quvvati, talab va taklif, raqobatbardoshlik, utilizatsiya, qayta ishlash, rezina granula, ekologik barqarorlik, investitsiya.

ПЕРСПЕКТИВЫ ИМПОРТОЗАМЕЩЕНИЯ И ЛОКАЛИЗАЦИИ НА РЫНКЕ АВТОМОБИЛЬНЫХ ШИН

Шоимкулов Рахмонкул Улугмуратович,
ведущий научный сотрудник
Научно-исследовательского центра



внешнеэкономической деятельности

Таможенного комитета

raxmonqul_shoimqulov@mail.ru

***Аннотация:** В данной научной работе проведён комплексный анализ текущего состояния рынка автомобильных шин в Республике Узбекистан, динамики импортных поставок, производственного потенциала и соотношения спроса и предложения на внутреннем рынке. По результатам исследования установлено, что основная часть внутреннего спроса на автомобильные шины покрывается за счёт импорта, при этом имеющиеся производственные мощности используются не в полной мере. Также выявлено, что разница в ценах между импортной и отечественной продукцией создаёт экономические предпосылки для расширения местного производства.*

***Ключевые слова:** автомобильные шины, импорт, локализация, промышленная кооперация, производственные мощности, спрос и предложение, конкурентоспособность, утилизация, переработка, резиновая гранула, экологическая устойчивость, инвестиции.*

Mazkur ilmiy tezis mamlakat iqtisodiyotida import o'rnini bosish siyosatini chuqurlashtirish doirasida avtomobil shinasini bozorining joriy holati, ichki talab va taklif nisbati, ishlab chiqarish salohiyati hamda utilizatsiya tizimini takomillashtirish imkoniyatlarini kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholash va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda respublikada avtomobil shinalari importi sezilarli darajada o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, bu ichki bozorda talabning yuqori ekanligini hamda mahalliy ishlab chiqarish hajmi yetarli darajada emasligini ko'rsatadi. Jumladan, 2024-yilda 12,2 million dona shina import qilinib, bu



ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 21 foizga, 2021-yilga nisbatan esa 45 foizga oshgan. Importning asosiy qismi yengil avtomobillar uchun mo'ljallangan shinalar hissasiga to'g'ri keladi, shuningdek velosipedlar, avtobus va yuk mashinalari uchun shinalar ham katta ulushni tashkil etmoqda. Import geografiyasi tahlili Xitoy, Slovakiya, Hindiston, Janubiy Koreya va Rossiya kabi davlatlar ustunlik qilayotganini ko'rsatib, ushbu davlatlar umumiy import hajmining qariyb barchasini ta'minlamoqda. Bu holat bozorda tashqi manbalarga yuqori darajada qaramlik mavjudligini anglatadi.

Ichki ishlab chiqarish salohiyati tahlil qilinganda, respublikada avtomobil shinalari ishlab chiqarish kam sonli korxonalar tomonidan amalga oshirilayotgani kuzatiladi. 2024-yilda jami 1,6 million dona shina ishlab chiqarilgan bo'lib, bu mavjud 3,2 million donalik ishlab chiqarish quvvatiga nisbatan ancha past ko'rsatkichni tashkil etadi va quvvatlardan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi. Mazkur holat ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanilmayotganini, shuningdek xomashyo ta'minoti, texnologiya, investitsiya yoki bozor mexanizmlari bilan bog'liq muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mahalliy avtomobilsozlik korxonalarini tomonidan ham katta miqdorda shinalar import qilinishi ichki sanoat kooperatsiyasining yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi.

Talab va taklif nisbati tahliliga ko'ra, 2024-yilda respublikada avtomobil shinalariga bo'lgan umumiy ehtiyoj 13,3 million donani tashkil etgan bo'lib, uning 93 foizi import hisobiga qoplangan. Bu ko'rsatkich sohada import o'rnini bosish bo'yicha katta zaxiralar mavjudligini yaqqol namoyon etadi. Shu bilan birga, narxlar tahlili import shinalar mahalliy mahsulotlarga nisbatan 30–40 foizga qimmat ekanligini ko'rsatdi. Bu esa mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun raqobatbardoshlikni oshirish va bozor ulushini kengaytirish uchun qulay imkoniyatlar mavjudligini anglatadi. Biroq bu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun mahsulot sifati, logistika va marketing omillarini ham takomillashtirish talab etiladi.



Xorijiy tajriba tahlili shina utilizatsiyasi va qayta ishlash sohasida yuqori samarador tizimlar shakllanganligini ko'rsatadi. Xususan, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi davlatlari va Shimoliy Amerika mamlakatlarida ishdan chiqqan shinalarning asosiy qismi qayta ishlanib, ikkilamchi xomashyo sifatida iqtisodiyotga qayta jalb etiladi. Qayta ishlash jarayonida rezina kukuni va granulalari olinib, ular yangi shinalar ishlab chiqarish, yo'l qoplamalari tayyorlash, sport va bolalar maydonchalari uchun qoplamalar yaratishda keng qo'llaniladi. Shu bilan birga, ko'plab davlatlarda shina utilizatsiyasi uchun ekologik yig'imlar joriy qilingan bo'lib, bu mexanizm chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash jarayonini moliyaviy jihatdan ta'minlaydi.

O'zbekistonda ham shina utilizatsiyasi bo'yicha muayyan huquqiy mexanizmlar mavjud bo'lsa-da, amaliyotda mazkur tizim yetarli darajada samarali ishlamayotgani kuzatiladi. Xususan, ishdan chiqqan shinalarning asosiy qismi qayta ishlanmasdan, noqulay ekologik usullarda yo'q qilinmoqda yoki yoqilg'i sifatida foydalanilmoqda. Bu esa atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga, iqtisodiy jihatdan qimmatli resurslarning yo'qotilishiga olib keladi. Shu bilan birga, mamlakatda rezina granulalari importining mavjudligi ichki qayta ishlash sanoatini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, avtomobil shinalari bozorida importga yuqori qaramlik saqlanib qolmoqda va bu milliy iqtisodiyot uchun muayyan xatarlar tug'dirishi mumkin. Ikkinchidan, mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish va yangi investitsiyalarni jalb qilish orqali mahalliyashtirish darajasini sezilarli oshirish imkoniyati mavjud. Uchinchidan, shina chiqindilarini qayta ishlash tizimini rivojlantirish orqali nafaqat ekologik muammolarni hal etish, balki qo'shimcha iqtisodiy qiymat yaratish mumkin.

Shu munosabat bilan, sohani yanada rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq: mahalliy ishlab



chiqarishni kengaytirish va modernizatsiya qilish; avtomobilsozlik tarmoqlari bilan sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish; yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish; shina chiqindilarini yig'ish, saralash va qayta ishlash bo'yicha samarali institutsional tizimni shakllantirish; shuningdek, ekologik standartlar va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, avtomobil shinasini bozorida import o'rnini bosish va mahalliyashtirishni chuqurlashtirish respublika sanoatini rivojlantirish, tashqi savdo muvozanatini yaxshilash va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 2-iyundagi 347-son qarori "Ayrim turdagi tovarlarni utilizatsiya qilish tartibini takomillashtirish to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari.
4. European Tyre and Rubber Manufacturers' Association. *End-of-Life Tyres Management Report 2023*.
5. Genan Holding A/S. Company reports and recycling technologies overview. – Denmark, 2023.